Shu o'rinda masalaning mohiyatini to'laqonli anglash imkonini beruvchi ayrim tushunchalarga izoh berib o'tamiz. Odatda, biz ichki va tashqi migratsiya tusunchlariga tez-tez ro'baro' kelamiz. Ammo amalda ularni o'zaro chalkashtirish holatlari ham uchrab turadi.

*Ichki migratsiya* – muayyan bir davlat ichida turli sababalarga ko'ra, aholining u yoki bu mintaqaga vaqtinchalik yoki doimiy ko'chishi, joylashuvidir. Ichki migratsiya deganda, kishilarning bir davlat hududida joylashgan iqtisodiy-jug'rofiy yoki ma'muriy-hududiy birliklari o'rtasida ko'chib yurishlari tushuniladi. Ichki migratsiya ikki turga, ya'ni qishloq va shahar ahli migratsiyasiga ajratiladi. *Qishloq migratsiyasi* deganda, aholining doimiy yoki vaqtinchalik asosda yashash maqsadida qishloqdan shaharga yoki bir qishloqning aholi punktidan boshqasiga


E-ISSN 2181-1148
ISSN 2181-919X

ko'chishi tushuniladi. *Shahar migratsiyasi*da esa shahar ahlining doimiy yoki vaqtinchalik asosda yashash maqsadida bir shahardan ikkinchisiga yoki qishloq joylarga ko'chib o'tishi tushuniladi. Shu o'rinda, bir shahar yoki qishloq hududidagi ko'chishlar migratsiya jarayoni sifatida qaralmasligini ta'kidlash joiz.

*Xalqaro migratsiya* – davlatlar, turli mintaqalar o'rtasida aholining ko'chishini anglatadi. Tashqi migratsiyaga emigratsiya va immigratsiya misol bo'la oladi. *Emigratsiya* deganda, doimiy yoki vaqtinchalik asosda yashash maqsadida boshqa davlatga ko'chib o'tish tushuniladi va u aksariyat hollarda mazkur davlat fuqaroligini olish bilan bog'liq bo'ladi. *Immigratsiya* deganda esa, aksincha, boshqa davlat fuqarolarining doimiy yoki vaqtinchalik asosda yashash maqsadida muayyan davlatga kirib kelishi tushuniladi va bunda aksariyat hollarda yangi fuqarolikni olish jarayoni amalga oshiriladi. Shu o'rinda, reemigratsiya va repatriatsiya kabi tushunchalarga ham alohida to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq. *Reemigratsiya* deganda, shaxsning avval chiqib ketgan davlati hududiga qaytib kelishi tushuniladi. *Repatriatsiya* esa shaxsning o'z etnik vataniga qaytib kelishidir. Tashqi migratsiya davlat chegarasining kechib o'tilishi bilan xarakterlanib, ikki xil sinfga ajratiladi – qit'alararo va qit'aning ichki migratsiyasi. Qit'aning ichki migratsiyasi ham, o'z navbatida, ikkiga, ya'ni davlatlararo va makromintaqalar o'rtasidagi migratsiyaga ajratiladi.

Tahlillar natijasida, biror mamlakatda bir yildan ortiq qolgan sayyoh bir qator davlatlardagi tegishli xizmatlar tomonidan migrant sifatida e'tirof etilishi, ammo shaxsning rasman migrant maqomini olishi uchun qancha muddat talab etilishi aniq qoida bilan mustahkamlab qo'yilmagani aniqlandi. BMT mezoniga ko'ra, xorijda 1 yildan ortiq vaqt davomida istiqomat qilgan shaxs xalqaro migrant maqomiga ega bo'lishi mumkin.

Tahlillar migratsion jarayonlarning kechishida muayyan o'zgarishlar kuzatilayotganini ko'rsatmoqda. Garchand, Yevropa, Shimoliy Amerika va Okeaniya davlatlari yuqori daromad manbayiga ega bo'lgan davlatlar sifatida migratsion oqimlarning muhim yo'nalishlari sifatida o'z o'rnini saqlab kelayotgan bo'lsada, migratsion tendensiyalarning diversifikatsiyalashayotganini ham unutmaslik kerak. Buni dunyoning muayyan mintaqalarida ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyojning ortishi, global xarakterdagi ta'lim olish borasidagi imkoniyatlarning kengayib borayotgani hamda aholining inqiroz va mojarolar ta'sirida ko'chishga majbur bo'layotgani bilan bog'lash mumkin. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, migrantlar gender tengligi, yoshi va ishchi kuchi bilan bog'liq xususiyatiga ko'ra muayyan tarkibiy o'zgarishlarni ham boshdan kechirmoqda.

Yillar kesimida o'tkazilgan qiyosiy tahlil asosida so'nggi yillarda migratsion oqimlarning o'sish sur'atlarida keskin o'sish kuzatilgan. Jumladan, 1990-yil (153,9 mln kishi) bilan o'zaro qiyoslaganda, 2024-yilga (304 mln kishi) kelib, migrantlar sonining 2 barobarga, 1960-yil (77,1 mln kishi) ko'rsatkichlari bilan solishtirganda esa migrantlar sonining to'rt barobarga ortgani aniqlangan (Rasm).

Aksariyat insonlar yuqori daromadli, barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlariga ega bo'lgan hamda o'ziga xos ijtimoiy siyosat yuritib kelayotgan AQSH, Kanada va Yevropa mamlakatlarini o'zlari uchun qulay manzil sifatida tanlaydilar. So'nggi yillarda neft qazib chiqaruvchi Ko'rfaz davlatlari ham mazkur davlatlar safidan munosib joy egallamoqda. Bunda mavsumiy asosda yoki muayyan muddatga mehnat faoliyati bilan shug'ullanish istagida bo'lgan Osiyo davlatlariga mansub bo'lgan migrantlar faol jalb etilmoqda. BMT ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda Yevropa va Shimoliy Amerikada istiqomat qiluvchi migrantlarning umumiy soni 155 million kishiga yetdi. Bu dunyodagi jami xalqaro migrantlarning 51 foizini tashkil etadi (Jadval).




**Rasm. Dunyo migrantlarining soni va ularning umumiy aholidagi ulushi, 1960–2024-yillar**

Manba: *Migration Policy Institute (MPI) tabulation of data from the United Nations Department of Economic and Social Affairs (UN DESA)*

Migratsion oqimlarning navbatdagi muhim yo'nalishlari Shimoliy Afrika va G'arbiy Osiyo mintaqalari hissasiga to'g'ri keladi. Hisob-kitoblarga ko'ra, mazkur hududlarda jami xalqaro migrantlarning **18 foizi** istiqomat qilmoqda. Ushbu ko'rsatkichlarni quyida keltirilgan raqamli ma'lumotlar ham tasdiqlaydi (jadval).

*Jadval*

**Xalqaro migrantlarning hududlar bo'yicha taqsimoti va ulushi, 2024-yil**

| Manzil (Hudud) | Migrantlar soni | Xalqaro migrantlar umumiy sonidagi ulushi (%) |
|---|---|---|
| XALQARO MIGRANTLARNING UMUMIY SONI | 304 022 000 | 100,0 |
| Yevropa va Shimoliy Amerika | 155 259 000 | 51,1 |
| Shimoliy Afrika va G'arbiy Osiyo | 54 086 000 | 17,8 |
| Sahroi Kabirdan janubdagi Afrika (Sub-Sahara Afrikasi) | 24 306 000 | 8,0 |
| Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo | 22 589 000 | 7,4 |
| Markaziy va Janubiy Osiyo | 20 370 000 | 6,7 |
| Lotin Amerikasi va Karib havzasi | 17 511 000 | 5,8 |
| Avstraliya va Yangi Zelandiya | 9 579 000 | 3,2 |
| Okeaniya (Avstraliya va Yangi Zelandiyadan tashqari) | 322 000 | 0,1 |

*Izoh:* "Shimoliy Amerika" tarkibiga Bermud orollari, Kanada, Grenlandiya, Sen-Pyer va Mikelon hamda AQSH kiradi. Yuqoridagi jadvalda ko'rsatilgan har bir mintaqa tarkibiga qaysi davlatlar kirishini ko'rish uchun bu yerni bosing.

Manba: *MPI tabulation of data from UN DESA Population Division, "International Migrant Stock 2024*

AQSH hanuz dunyo mamlakatlari ichida migrantlarni o'ziga jalb qiluvchi asosiy manzil sifatidagi mavqeyini saqlab kelmoqda. Zotan, 2024-yil uchun olingan ma'lumotlarga ko'ra, dunyo miqyosidagi migrantlarning 17,2 foizi aynan mazkur davlat hissasiga

to‘g‘ri keladi. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, ayni paytda AQSHda dunyo aholisining 4,2 foizi istiqomat qiladi. Bir so‘z bilan aytganda, BMT hisoblariga ko‘ra, AQSH hududida yashab kelayotgan migrantlar (52 mln kishi) soni quyida keltirilgan davlatlardagi migrantlarning umumiy soni (51,5 mln kishi) dan ham yuqoriligicha qolmoqda, bular: Germaniya (2024-yilda migrantlarning umumiy soni 16,8 mln kishini, ya’ni dunyo miqyosidagi migrantlarning 5,5 foizini tashkil etgan), Saudiya Arabistoni (13,7 mln kishi, ya’ni "4,5 foiz), Buyuk Britaniya (11,8 mln kishi, ya’ni 3,9 foiz) va Fransiya (9,2 mln kishi, ya’ni 3 foiz) (Migration Policy Institute, 2025).

Umuman olganda, maqolamiz doirasidagi ilmiy-amaliy natijalar sifatida AQSHda migratsiya siyosatida ijroiya hokimiyatining ta’siri tobora ortib borayotgani, partiyalar o‘rtasidagi ziddiyatlar yuzaga kelayotgani bois, qonunchilik islohotlarini izchil tarzda davom ettirish qiyin kechayotgani hamda xavfsizlik yondashuvi ustuvorligi insonparvarlik tamoyillariga zid tendensiyalarning kuchayishiga xizmat qilayotganini keltirish mumkin.

**Muhokama**

Ta’kidlash joizki, ayni paytda AQSH va Yevropa davlatlari migrantlarni yetkazib beruvchi donor davlatlar sifatida ham yetakchilik qilib kelmoqdalar. Zero, xalqaro miqyosdagi emigrantlarning 22 foizi aynan AQSH va Yevropa davlatlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Markaziy va Janubiy Osiyo davlatlari esa bu borada ikkinchi hamda Lotin Amerikasi va Karib havzasidagi davlatlar uchinchi o‘rinni egallaydilar. Mazkur ro‘yxatda keltirilgan davlatlar orasida Hindiston yetakchilik qiladi. 2024-yil yakunlariga ko‘ra, mazkur davlat hissasiga 18,5 mln emigrant to‘g‘ri kelgan. Keyingi o‘rinlarni esa Xitoy (11,7 mln kishi), Meksika (11,6 mln kishi), Ukraina (9,8 mln kishi) va Rossiya (9,1 mln kishi) egallagan.

Ma’lumki, migrantlarning katta qismini mehnat migrantlari tashkil etadi. Xalqaro mehnat tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, 2022-yilda mehnat migrantlarining umumiy soni 167,7 mln kishini tashkil etgan. Mehnat muhojirlari turli malaka va kasb egalari bo‘lib, ularning aksariyat qismi qishloq xo‘jaligi, qurilish va turizm kabi sohalarda faoliyat yuritib kelmoqdalar. Ularning orasida ishga layoqatli bo‘lganlar (15 yosh va undan kattalar)ning umumiy soni 66 foizni tashkil etadi. Mehnat muhojirlarining 61 foizi (102,7 mln kishi) erkaklar hamda 39 foizi ayollardan iborat.

So‘nggi yillarda ta’lim migrantlarining ham salmog‘i ortgan. Xususan, Xalqaro ta’lim instituti tomonidan berilgan ma’lumotlarga ko‘ra, 2024-yilda o‘z davlati hududidan tashqarida tahsil olgan talabalarning umumiy soni 6,9 mln kishini tashkil etgan. 2014-yilda mazkur ko‘rsatkich 4,5 mln kishiga yetgan. Talaba yoshlarni o‘ziga jalb qiluvchi asosiy davlatlar sirasiga AQSH (1,1 mln kishi), Kanada (843 ming kishi), Buyuk Britaniya (759 ming kishi), Avstraliya (437 ming kishi) va Fransiya (412 ming kishi) kabilarni kiritish mumkin. Umumiy hisobda, mazkur davlatlar hissasiga dunyo miqyosidagi ta’lim migrantlarining 52 foizi to‘g‘ri keladi.

Shu o‘rinda ko‘chib yuruvchilar orasida majburiy migrantlarning ham salmog‘i yuqori ekanini ta’kidlash joiz. Jumladan, BMTning Qochoqlar masalalari bo‘yicha Oliy komissarligi boshqarmasi tomonidan 2024-yilda xalqaro miqyosda majburiy ko‘chirilganlar (shu jumladan, qochoqlar, siyosiy boshpana izlovchilar, ichki ko‘chirilganlar, BMTning Qochoqlar masalalari bo‘yicha Oliy komissarligi boshqarmasi mandati ostida joylashgan qochoqlar hamda xalqaro himoyaga muhtoj bo‘lgan boshqa toifadagi shaxslar)ning umumiy soni 123,2 mln kishidan oshgani ma’lum qilingan.

Migrantlarning tarkibiy tuzilishi ham alohida qiziqish uyg‘otishi tabiiy. Shu boisdan, tadqiqotimiz doirasida masalaning ushbu jihatiga ham alohida e’tibor qaratilgan. 2024-yil yakunlari yuzasidan BMT tomoni-

dan berilgan ma'lumotlarga ko'ra, xalqaro migrantlarning 48 foizi (146 mln kishi)ni xotin-qizlar tashkil etgan. 2010-yil bilan qiyoslaganda, ularning umumiy soni 35,5 foizga ortgan. 2010-yilda mazkur ko'rsatkich 108 mln kishini tashkil etgan. Erkaklar ulushi esa shu davr mobaynida 39,5 foizga ortgani kuzatilgan. Shu o'rinda, migrantlar orasida bolalar ulushi xususida ham qisqacha to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq. 2020-yil yakunlari yuzasidan BMT tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar asosida migrantlarning 13 foizi (35,5 mln kishi)ni 18 yoshga to'lmagan bolalar tashkil etgani anqlangan (Guijosa-Torres, 2025). Ushbu davrda xalqaro migrantlarning umumiy soni 280,6 mln kishini tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkich kuzatuvlar tarixidagi eng yuqori ko'rsatkich sifatida baholangan.

Bir qator davlatlar tomonidan migratsion oqimlarni boshqarish va tartibga solish borasida o'ziga xos tajriba orttirilgan. Tahlillar migrantlarni o'ziga jalb qiluvchi asosiy manzillardan biri sifatida AQSH yetakchilik qilayotganini ko'rsatmoqda. Shu boisdan, mazkur davlatning migratsion jarayonlarni huquqiy jihatdan tartibga solish va boshqarish borasidagi tajribasini o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Shunga ko'ra, tadqiqotimiz obyekti sifatida aynan AQSH tanlab olinan.

Ma'lumki, AQSH tarixida ko'plab migratsion oqimlarning harakatlanganini kuzatish mumkin. Shu boisdan mazkur davlatning mazkur jarayonni huquqiy jihatdan tartibga solish borasidagi o'ziga xos boy tajribasi va huquqiy asoslari mavjud. Ammo XXI asr boshlariga kelib, migratsion jarayonlarning kelib chiqish sabablari, ularning harakatlanish trayektoriyasi, tabiati va oqibatlarining namoyon bo'lish xususiyatida muayyan o'zgarishlar kuzatildi. Garchand federal hukumat vakillari mavjud qonunchilik normalariga tayangan holda migratsion siyosat yuritishga intilgan bo'lsalar-da, jamoatchilik orasida milliy xavfsizlikni ta'minlash nuqtayi nazaridan norozilik kayfiyatining tobora ortib borgani kuzatildi. Tabiiyki, mavjud holat yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltirdi.

Qora tanli va Lotin Amerikasi xalqlariga mansub bo'lgan ishchi muhojirlarning ijtimoiy ta'minoti masalalari bilan shug'ullangan olim Brayan Uordning fikricha, 2001-yil 11-sentyabr voqealari migratsion jarayonlarni tartibga solish borasidagi talablarning yangi to'lqinini shakllantirdi. Natijada kichik Jorj Bush ma'muriyati tomonidan 2005- va 2007-yillar oralig'ida migratsiya siyosatini yuritish borasidagi 3 xil shakldagi qonun loyihalari ishlab chiqilgan bo'lsa-da, ular qisqa vaqt ichida rad etildi. Ulardan biri 2006-yilda ko'pgina muhokamalarga sabab bo'lgan Umumqamrovli migratsiya qonuni edi. Unga ko'ra, chegara hududlarini mustahkamlash va migratsiyaga oid sanksiyalarni kuchaytirish, xorijlik ishchilarni mavsumiy ishlarga jalb qilish dasturlarini ishlab chiqish hamda 5 yil davomida AQSHda mehnat faoliyatini olib borayotgan migrantlarga doimiy asosda istiqomat qiluvchi shaxs maqomini berish asoslarini mustaqkamlash ko'zda tutilgan (United States Congress, 2006). Garchand mazkur choralar Kongress tomonidan ma'qullanmagan bo'lsa-da, u milliy xavfsizlikni ta'minlash, immigrant va emmigrantlar uchun erkin harakatlanish imkonini yaratish zarurati yuzaga kelganini ko'rsatib berdi. Zotan, J. Bush ma'muriyati davrida migratsion siyosatning isloh etilmaganligi, bu borada diskriminatsion siyosat yuritilishiga sabab bo'lgan edi. Buni 2001-yil 11-sentyabr voqealaridan so'ng kuchli ta'qib ostida qolgan musulmon jamoalari misolida ham ko'rish mumkin.

2009-yilning yanvar oyida hokimiyat tepasiga kelgan Barak Obama davrida ham migratsion siyosatni isloh qilish masalasi kun tartibidan muhim o'rin egalladi. Buni 2011-yilda ishlab chiqilgan "Voyaga yetmagan xorijlik bolalarni rivojlantirish, ko'mak berish va ta'limga yo'naltirish to'g'risida"gi (American Immigration Council, 2024) qonun loyihasi misolida ko'rish mumkin. Mazkur qonunning qabul qilinishi muhojirlarning

farzandlariga doimiy yashash huquqini qo‘lga kiritish imkonini taqdim etishi kutilgan edi. Ammo mazkur hujjat ham Kongress tomonidan rad etildi. Shundan so‘ng, B. Obama tomonidan "Bolalik davrida kirib kelgan yoshlarga nisbatan kechiktirilgan choralar to‘g‘risida"gi (Benenson, 2024) qonuni imzolanadi. Uning qabul qilinishi natijasida 2007-yilning 15-iyuniga qadar AQSHga kirib kelgan bola (16 yoshga to‘lmagan)larning muayyan muddatga deportatsiya qilinishiga chek qo‘yish hamda ularning bandligini ta’minlash imkonini berdi. Biroq mazkur qonun bilan fuqarolikka ega bo‘lish asoslari mustahkamlab qo‘yilmagan. Ta’kidlash joizki, Kongress tomonidan DREAM Act qonunining rad etilishi hamda migratsion siyosatni isloh qilishda DACA Act qonuniga tayanilishi bilan bog‘liq holatlar, AQSHning migratsion siyosatini isloh qilish borasida siyosatchilar o‘rtasida keskin kurash va qarama-qarshiliklar mavjudligini ko‘rsatib berdi.

B. Obamaning ikki muddatli prezidentlik davrida avvalgi davlat rahbarlari davrida kuzatilmagan keng ko‘lamli (3 mln ga yaqin shaxs) deportatsiyalarning amalga oshirilishi, DACA Actning kutilgan natijalarga olib kelmaganini yana biri karra tasdiqladi. Garchand davlat rahbari DACA Act doirasida migrantlarning doimiy yashash huquqlarini ta’minlashga intilgan bo‘lsa-da, amalda ularni qo‘lga olish va deportatsiya qilish holatlariga chek qo‘yilmadi.

Donald Trampning birinchi prezidentlik muddati (2017–2021-yillar) keng ko‘lamli migratsion islohotlar davri bo‘ldi. D. Trampning prezidentlik kampaniyasi doirasida migratsiya siyosatiga oid bir qator hujjatlar imzolandi. Jumladan, 2017-yilda davlat rahbari tomonidan ko‘psonli musulmon aholisiga ega bo‘lgan davlat vakillarining AQSHga kirib kelishini taqiqlovchi 13769-sonli farmon (Presidents’ Alliance on Higher Education and Immigration, 2024) hamda AQSH va Meksika o‘rtasidagi chegara hududi bo‘ylab devor barpo etish to‘g‘risidagi 13767-sonli farmonlar (The New York Times, 2023) imzolandi.

2021-yilda hokimiyat tepasiga kelgan J. Bayden ma’muriyati davrida migratsiya siyosatiga oid 605 ta farmon chiqarildi. E’tiborga molik jihati shundaki, Donald Tramp o‘zining navbatdagi prezidentlik muddatining 11 oyi davomida migratsiya siyosatiga oid 170 dan ziyod ijroiya farmonlarini chiqarishga muvaffaq bo‘lgan. J. Bayden, B. Obama (birinchi prezidentlik muddati) va Kichik J. Bush (birinchi prezidentlik muddati)larning to‘rt yillik faoliyati sarhisobi nuqtayi nazaridan o‘zaro qiyoslagan holda, ular tomonidan shu vaqt davomida chiqarilgan farmonlar soni 162, 147 va 173 tani tashkil etganiga guvoh bo‘lish mumkin (American Presidency Project, 2025).

2017-yilda Tramp ma’muriyati tomonidan DACA Actni bekor qilish yuzasidan axborot tarqatilib, bu boradagi sa’y-harakatlar boshlab yuboriladi. Ammo 2020-yilda Oliy Sudga kelib tushgan ko‘psonli murojaatlar yuzasidan Tramp ma’muriyatining "iddaosi" asossiz deb topilib, dasturni bekor qilish masalasi rad etiladi. Ayni paytga qadar, mazkur masalaga to‘laqonli yechim topilmagan bo‘lib, u hanuzgacha tomonlar o‘rtasida keng bahs va munozaralarga sabab bo‘lib kelmoqda (MALDEF, 2024). So‘nggi vaqtlarda DACA bilan bog‘liq holda qonunchilikda yuz berayotgan o‘zgarishlar, AQSH migratsion siyosatining tobora beqaror hususiyat kasb etib borayotganini anglatadi. Migratsiyaga oid qonunchilikda tezkor sur’atlarda yuz berayotgan "yangilanishlar" ko‘plab chalkashliklarni keltirib chiqarish barobarida ko‘psonli muhojirlarning AQSH bilan bog‘liq bo‘lgan kelgusidagi taqdiri borasidagi ishonchsizlik kayfiyatini kuchaytirmoqda.

2024-yilda D. Trampning saylovoldi kampaniyasi doirasida ilgari surilgan antiimmigratsion dasturi demokratlar va respublikachilar o‘rtasidagi ko‘plab bahs va munozalarga sabab bo‘ldi. Unga ko‘ra, migratsiyaga milliy xavfsizlik va iqtisodiyotga tahdid sifatida qaralgan. Umuman olganda, 2010–2020-yillar

oralig‘ida o‘tkazilgan migratsion islohotlar turli siyosiy partiyalar o‘rtasidagi ziddiyatlarning kuchayishiga xizmat qildi, desak xato bo‘lmaydi. Respublikachilar bu borada, odatda, cheklovlarga asoslangan antiimmigratsion qarashlarni ilgari surgan bo‘lsalar, demokratlar nisbatan inklyuziv islohotlarning tarafdori sifatida maydonga chiqqanlar.

J. Bayden ma’muriyati davrida ham migratsion siyosatga doir bir qator qonunchilik normalari ishlab chiqildi. Ammo ularning muayyan qismi bir-birini inkor qilgani bois, amalda chalkashliklar kuzatildi. Jumladan, 2023-yilda insonparvarlik prinsiplari nuqtayi nazaridan muqaddam hibsga olingan Kuba, Gaiti va Nikaragua fuqarolarini muddatidan avval muayyan shartlar asosida ozod qilishga qaror qilingan. Ammo ayni paytda AQSHning Bojxona va chegara xizmati ilovasi asosida ro‘yxatdan o‘tmagan shaxslarning boshpanaga ega bo‘lish maqsadida AQSH va Meksika chegaralarini kesib o‘tishi bilan bog‘liq cheklovlar joriy etildi (Migration Policy Institute, 2024). Demokratlar va respublikachilar o‘rtasida davom etayotgan ixtiloflar noqonuniy muhojirlarning AQSH jamiyatiga integratsiyalashuvini ta’minlashga xizmat qiluvchi qonunchilik normalarini ishlab chiqish imkonini cheklaydi. Bu esa o‘z navbatida ularning sog‘liqni saqlash kabi xizmatlardan foydalanish imkonini cheklaydi.

**Xulosa**

Yuqorida o‘tkazilgan tahlil asosida XXI asrda AQSHda yuritilgan migratsion siyosatning shakllanish bosqichlari va o‘ziga xos jihatlari o‘rganildi. Bugungi kunda amalda bo‘lgan mazkur siyosatning mazmuni davlatning iqtisodiy va siyosiy manfaatlari nuqtayi nazaridan hamda irqiy qarashlar ta’sirida shakllanayotganini ko‘rish mumkin. 1882-yilgi “Xitoyliklarni cheklash to‘g‘risida”gi qonun (National Archives, 1882), 1924-yilgi “Migratsiya to‘g‘risida”gi qonun (*Immigration Act*), “Bolalik davrida kirib kelgan yoshlarga nisbatan kechiktirilgan choralar to‘g‘risida”gi (Benenson, 2024) qonun hamda 42-bo‘lim (Kaiser Family Foundation, 2025) ning qabul qilinishi migratsion islohotlarning davom etayotganini ko‘rsatgan bo‘lsa-da, amalda mavjud muammoni to‘laqonli hal qilish imkonini bermadi. AQSH migratsion siyosati atrofida yuzaga kelgan ixtiloflarning zamirida bir qator muhim va o‘zaro bog‘liq bo‘lgan masalalar ko‘ndalang yotganini ko‘rishimiz mumkin.

*Birinchidan*, Kongress bilan o‘zaro kelishish imkonini chetlab o‘tish orqali migratsiyaga oid qabul qilinayotgan qarorlar ijrosini ta’minlashda ijroiya hokimiyati o‘rni va ahamiyatining tobora ortib borayotgani. Bu esa migratsiya siyosatini yuritish borasidagi vakolatlarning bosqichma-bosqich tarzda ijroiya hokimiyatiga o‘tkazilayotganini ko‘rsatadi.

*Ikkinchidan*, respublikachi va demokratlarning hech biri o‘ziga xos, izchil migratsion islohotlarni amalga oshira olmagan bo‘lsa-da, ularning har biri o‘z qarashlariga nisbatan qat’iy pozitsiyasini saqlab qolgan. Bunda Respublikachilar partiyasining muayyan ma’noda antiimmigratsion, Demokratlar partiyasining esa nisbatan proimmigratsion siyosat yuritish talabi bilan chiqayotganini ko‘rishimiz mumkin.

*Uchinchidan*, noqonuniy migrantlarga tibbiy xizmat ko‘rsatish imkoni cheklangan bo‘lib, u noqonuniy migrantlarning boshpana olish huquqini cheklovchi me’yorlar doirasi bilan qamrab olingan.

*To‘rtinchidan*, Kongressda turli qarama-qarshiliklar kuzatilayotgani bois, migratsiyaga oid qonunchilikni isloh qilish jarayoni turg‘unlik davrini boshdan kechirmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, qonunchilikni amaliyotga tatbiq etishda bir qator muammolarni keltirib chiqarmoqda.

*Beshinchidan*, migratsiyaga milliy va iqtisodiy xavfsizlikka tahdid soluvchi omil sifatida qaralishi jamiyatda antiimmigratsion kayfiyatning kuchayishi hamda insonparvarlik tamoyillariga asoslangan islohotlarning izchil tarzda kechishiga o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatmoqda.

Olib borilgan taqdidot natijalariga ko‘ra, AQSHning migratsion jarayonlarni huquqiy tartibga solish borasidagi mavjud muammolarini bartaraf etish yuzasidan bir qator takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq deb hisoblayman:

– migratsiyaga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish maqsadida qaror qabul qilish va ijrosini ta’minlash jarayonida Kongress vakolatlarini bosqichma-bosqich tarzda oshirib borish;

– migratsion jarayonlarni huquqiy jihatdan tartibga solishda inson manfaatlarini, xususan, bola huquqlarini ta’minlash nuqtayi nazaridan Respublikachi va Demokratlar partiyalarining yakdil to‘xtamga kelish imkonini yaratish;

– xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsiplariga tayangan holda, noqonuniy migrantlarga tibbiy xizmat ko‘rsatish amaliyotini joriy qilish;

– aksariyat hollarda migratsiyaga salbiy omil sifatida qaraladi. Ammo amalda uning bir qator ijobiy jihatlarga ega ekanligini ham ta’kidlash joiz. Jumladan, qabul qiluvchi davlatlarga tashrif buyuruvchi migrantlar orasida muayyan sohaning yetuk vakillari, jumladan, olimlar, tibbiyot sohasi vakillari va sportchilar ham bo‘lishi va ular davlat ravnaqiga munosib hissa qo‘shishi, shuningdek, arzon ishchi kuchi sifatida davlat byudjetining tejalishiga munosib hissa qo‘shishi mumkin bo‘lgan migrantlar ham tashrif buyuradilar. Shunga ko‘ra, mahalliy aholiga ularning afzallik jihatlari haqidagi qarashlarni singdirish va shu yo‘l bilan insonparvarlik tamoyillariga asoslangan islohotlarning izchil tarzda kechishiga munosib hissa qo‘shish mumkin bo‘ladi.

AQSH tarixida migratsiyaga oid davlat siyosatining jadal rivojlanish bosqichi aynan XX asrga to‘g‘ri keladi. Ushbu davrda Kongressning faol ishtiroki ostida yirik migratsion islohotlar amalga oshirildi. Xususan, 1965-yildagi “Migratsiya va fuqarolik to‘g‘risida”gi qonun (*Immigration and Nationality Act*)ga kiritilgan asosiy o‘zgartishlar bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Biroq XXI asrga kelib, migratsiya siyosatiga oid muhim hujjatlarni qabul qilishda qonun chiqaruvchi hokimiyat (Kongress) jiddiy boshi berk ko‘chaga kirib qoldi. Natijada, ushbu sohani tartibga solishda ijroiya hokimiyatining nufuzi va vakolatlari sezilarli darajada ortdi. B. Obama tomonidan *DACA* dasturining joriy etilishi, D. Tramp tomonidan chegara devorini barpo etish tashabbusi va qat’iy choralar hamda J. Bayden davrida 42-bo‘lim (Kaiser Family Foundation, 2025) bilan bog‘liq tartibotlarning qo‘llanishi kabilar migratsiya siyosatini belgilash tizginlari tobora ijroiya hokimiyati qo‘liga o‘tib borayotganidan dalolat beradi. Federal hukumat darajasidagi bunday institutsional o‘zgarishlar AQSHning migratsion siyosatining beqaror va o‘zgaruvchan xarakterga ega bo‘lib qolishiga zamin yaratmoqda.

AQSHning ikki asrlik migratsiya siyosati tahlili shuni ko‘rsatadiki, ushbu jarayon doimo milliy manfaatlarga asoslangan. Xususan, XX asrning birinchi yarmida (masalan, 1924-yilda Bracero dasturi doirasida qabul qilingan “Migratsiya to‘g‘risida”gi qonun) migratsiya oqimi asosan iqtisodiy samaradorlik hamda muayyan irqiy xususiyatlar ta’sirida tartibga solingan. Bundan farqli o‘laroq, XXI asrda AQSH migratsiya siyosatining o‘zagini terrorizmga qarshi kurash, chegara hududlari mudofaasini kuchaytirish va turli yuqumli kasalliklar tarqalishining oldini olish bilan bog‘liq xavf-xatarlarga qarshi kurash g‘oyasi tashkil etmoqda. 2001-yil 11-sentyabr voqealaridan so‘ng, migrantlarga nisbatan yondashuv tubdan o‘zgardi: endilikda ular milliy xavfsizlikka potensial tahdid sifatida ko‘rila boshlandi. Buning natijasida chegara nazorati misli ko‘rilmagan darajada kuchaytirildi, migrantlarni hibsga olish va deportatsiya qilish ko‘rsatkichlari esa keskin ortdi.

Migratsiya sohasidagi islohotlarning tub zamirida kishilarni ta’qib qilish yoki ularning erkin harakatlanishiga to‘sqinlik qiluvchi byurokratik g‘ovlarni yuzaga keltirish emas, balki inson qadr-qimmatini ulug‘lash,

mavjud salohiyatni roʻyobga chiqarish va davlat ravnaqiga hissa qoʻshishga xizmat qiluvchi choralar mujassam boʻlishi lozim. Bunda muhojirlarga huquqiy yordam koʻrsatish va sogʻliqni saqlash tizimidan toʻlaqonli foydalanish imkoniyatini yaratish, migrantlarning yoshi, millati yoki kelib chiqishidan qatʼi nazar, barchaga oʻzaro teng asoslarda fuqarolikka ega boʻlish huquqini taqdim etish imkonini yaratish, jamiyat hayotiga moslashish jarayonini soddalashtirish orqali ularning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish kabi masalalarga ustuvorlik berish muhim sanaladi.

## REFERENCES

1. Aatola, M. (2018). *Societal security: In the Baltic Sea region*. Latvian Institute of International Affairs.
2. Abdullaev, E. (2008). Trudovaya migratsiya kak fenomen razvivayushchegosya obshchestva *[Labor migration as a phenomenon of a developing society]*. In *Trudovaya migratsiya v Respublike Uzbekistan: Sotsialnye, pravovye i gendernye aspekty [Labor migration in the Republic of Uzbekistan: Social, legal and gender aspects].* UNDP.
3. Abdullayev, N. (2022). *Xavfsizlik va barqarorlikka tahdidlar sharoitida Suriyaning siyosiy transformatsiyasi [Political transformation of Syria under conditions of threats to security and stability]* (*Doctoral dissertation*). NUU.
4. Abdurahmonova, G. (2017). *Aholini munosib mehnat tamoyillari asosida ish bilan taʼminlash [Ensuring employment based on decent work principles]*. Iqtisodiyot.
5. Acharya, A. (1997). *The periphery as the core: The third world and security studies.* UCL Press.
6. American Immigration Council. (2024). *The Dream Act: An overview. The Dream Act, DACA, and other policies designed to protect Dreamers*. https://www.americanimmigrationcouncil.org/fact-sheet/dream-act-overview/
7. American Presidency Project. (2025, February 18). *Trump's first 100 days in 2025*. https://www.presidency.ucsb.edu/analyses/trumps-first-100-days-2025
8. Amirova, D. (2016). Regulirovanie migratsionnykh protsessov kak faktor obespecheniya natsionalnoy bezopasnosti strany [Regulation of migration processes as a factor in ensuring national security of the country]. *Modern Scientific Research and Innovation*, (6), 889–893.
9. Andrijasevic, R. (2012). *Migration, agency and citizenship in sex trafficking*. Palgrave Macmillan.
10. Angenendt, S. (2008). *International migration – Just a matter of state security.* Foundation for European Progressive Studies.
11. Bayefsky, A. (2016). *Human rights and refugees, internally displaced persons and migrant workers*. Martinus Nijhoff.
12. Benenson, L. (2024, May 21). *Fact sheet: Deferred Action for Childhood Arrivals (DACA)*. Forum Together. https://forumtogether.org/article/fact-sheet-on-deferred-action-for-childhood-arrivals-daca/
13. Betts, A. (2009). *Protection by Persuasion: International Cooperation in the Refugee Regime*. Cornell University Press.
14. Betts, A. (2017). *A fair share: Refugees and responsibility sharing*. Author.
15. Boʻronov, S. M. (2020). *Afgʻonistonda vaziyatni barqarorlashtirish jarayonida Oʻzbekiston ishtirokining geosiyosiy jihatlari [Geopolitical aspects of Uzbekistan's participation in stabilizing the situation in Afghanistan]* (*Doctoral dissertation*). TSOUS.
16. Bobokulov, I. (2011). *Xavfsizlik asoslari [Fundamentals of security].* UWED.
17. Burton, J. W. (1993). *Conflict: Human needs theory*. Macmillan.
18. Buzan, B. (2007). *People, states and fear*. Harvester Wheatsheaf.

19. Carens, J. (2013). *The ethics of immigration*. Oxford University Press.

20. Encyclopaedia Britannica. (2026). *Human migration*. https://www.britannica.com/topic/human-migration

21. G'oyibnazarov, Sh. (2021). *Islom terrorizmga qarshi [Islam against terrorism]*. Uzbekistan.

22. Gautam, P. K. (2004). *National security: A primer*. Knowledge World.

23. Giddens, A. (1987). *The nation-state and violence*. University of California Press.

24. Greenwood, M. (1997). *Internal migration in developed countries*. Elsevier.

25. Guijosa-Torres, Y. (2025, August 27). *Federal immigration policy in the United States: Historical legacies and modern trends*. Human Rights Research Center. https://www.humanrightsresearch.org/post/federal-immigration-policy-in-the-united-states-historical-legacies-and-modern-trends

26. Guiraudon, V. (2001). *Controlling a new migration world*. Routledge.

27. Huddleston, T. (2011). *Migrant integration policy*. Migration Policy Group.

28. Jiyoung, S. (2015). *Irregular migration and human security in East Asia*. Routledge.

29. Jo'rayev, T. (2007a). *Milliy davlatchilik: Xavfsizlik va barqarorlik [National statehood: Security and stability].* Akademiya.

30. Jo'rayev, T. (2007b). *Milliy manfaatlar va milliy xavfsizlik [National interests and national security].* Akademiya.

31. Kaiser Family Foundation. (2025). *Title 42 and its impact on immigration and migrant families.* https://www.kff.org/racial-equity-and-health-policy/title-42-and-its-impact-on-immigration-and-migrant-families/

32. Karimov, F. (2020). *Yaqin Sharqda etnik kurdlar muammosi [The problem of ethnic Kurds in the Middle East].* Lesson Press.

33. Koser, K. (2007). *International migration: A very short introduction*. Oxford University Press.

34. Lazaridis, G. (2015). *International migration into Europe: From subjects to abjects*. Palgrave Macmillan.

35. Madaminova, D. (2025). *Migratsiya omilining xavfsizlik masalalariga ta'siri [The impact of migration factors on security issues]*. Impress Media.

36. Maksakova, L. (2022). Mobilnost chelovecheskogo kapitala: tekushchie trendy i gosudarstvennaya politika Respubliki Uzbekistan *[Human capital mobility: Current trends and state policy of the Republic of Uzbekistan]*. In *Migratsii v Tsentral'noy Azii i Rossii: mobil'nost chelovecheskogo kapitala [Migration in Central Asia and Russia: Human capital mobility]* (pp. 89–108). ER-graf.

37. MALDEF. (2024, September 17). *Status of Texas v. United States (DACA)*. https://www.maldef.org/2024/09/status-of-texas-v-united-states-daca-2/

38. Marcelo, M. (2019). *Humanitarianism and mass migration: Confronting the world crisis*. California Press.

39. Merriam-Webster. (n.d.). *Migrate*. https://www.merriam-webster.com/dictionary/migrate

40. Migration Policy Institute. (2024). *Biden's mixed immigration legacy: Border challenges overshadowed modernization advances*. https://www.migrationpolicy.org/article/biden-immigration-legacy

41. Migration Policy Institute. (2025, August 26). *Top statistics on global migration and migrants*. https://www.migrationpolicy.org/article/top-statistics-global-migration-migrants-2025

42. Muydinov, D. (2019). *Hozirgi zamon migratsion jarayonlarning jamiyat barqarorligiga ta'siri (GFR misolida) [The impact of contemporary migration processes on societal stability: The case of Germany]* (Doctoral dissertation). TSOUS.

43. National Archives. (1882). *Chinese Exclusion Act*. https://www.archives.gov/milestone-documents/chinese-exclusion-act

44. Nuritdinov, M. (1998). *Islom: Bag'rikenglik va mutaassiblik [Islam: Tolerance and fanaticism].*TSTU.

45. Orton, A. (2012). *Building migrants' belonging through positive interactions*. Council of Europe.

46. Presidents' Alliance on Higher Education and Immigration. (2024). *Overview of Trump administration immigration policies and their impact on students and campuses, 2017–2021*. https://www.presidentsalliance.org/wp-content/uploads/2024/12/Overview-of-Trump-Administration-Immigration-Policies-2017-2021.pdf

47. Qodirova, Z. A. (2016). *Globallashuv sharoitida O'zbekistonning xalqaro mehnat bozoriga integratsiyalashuvi [Integration of Uzbekistan into the international labor market in the context of globalization]*. Iqtisodiyot.

48. Rajabova, M. (2000). *Diniy ekstremizm va terrorchilik [Religious extremism and terrorism].* Movarounnahr.

49. Rasulova, D. (2010). *Ishchi kuchi migratsiyasi rivojlanishining nazariy asoslari [Theoretical foundations of labor migration development]*. Moliya.

50. Ribakovskiy, L. (1987). *Migratsiya naseleniya: prognozi, faktori, politika [Population migration: forecasts, factors, policy].* Nauka.

51. Samarov, R. (2010). *Xavfsizlikning metodologik asoslari [Methodological foundations of security]*. Akademiya.

52. Shepherd, L. J. (2013). *Critical approaches to security*. Routledge.

53. The New York Times. (2023, May 14). *5 moments that defined Trump's record on immigration*. http://www.nytimes.com/2023/05/14/us/politics/trump-immigration-record.html

54. Triandafyllidou, A. (2021). *Migration and pandemics*. Ryerson University.

55. Tulepov, A. (2013). *Islom va aqidaparast oqimlar [Islam and fundamentalist movements]*. Sharq.

56. Umarova, N. (2006). *O'zbekiston demografik jarayonlari va aholi bandligi [Demographic processes and employment of the population in Uzbekistan]. NUU.*

57. Umurzakov, B. (2017). *Mehnat resurslari shakllanishi va taqsimlanishining hududiy xususiyatlari [Regional features of formation and distribution of labor resources]*. Lesson Press.

58. United States Congress. (2006). *S.2611 - Comprehensive Immigration Reform Act of 2006*. https://www.congress.gov/bill/109th-congress/senate-bill/2611

59. Ushakova, D. (2000). *Tolkoviy slovar russkogo yazika [Explanatory dictionary of the Russian language]* (Vol. 1). Moscow Publishers.

60. Waever, O. (1997). *Concepts of security*. Institute for Political Science.

61. Weiner, M. (1995). *The global migration crisis: Challenge to states and to human rights*. HarperCollins College Division.

62. Wickramasinghe, W. (2017). International migration and migration theories. *Social Affairs: A Journal for the Social Sciences, 5*(1), 13–32. https://www.researchgate.net/publication/312211237

63. Zolberg, R. (2001). *Global migrants, global refugees: Problems and solutions*. Berghahn Books.


E-ISSN 2181-1148
ISSN 2181-919X

# YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI
# ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК
# REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal
Правовой научно-практический журнал
Legal scientific-practical journal

**2026-yil 1-son**

VOLUME 10 / ISSUE 1 / 2026

DOI: HTTPS://DX.DOI.ORG/10.51788/TSUL.ROLS.2025.10.1.